

INGLIZ MAQOLLARIDA TANA A'ZOLARINING NOMLARI VA ULARNING
O'ZBEK TILIGA O'GRILISHI

Hamroqulova Ruxshona Ilhom qizi

SamDCHTI "Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik" fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda ingliz tili dunyo tillari qatoriga kirar ekan, biz undan kudalik hayotda ham o'qish va ish jarayonlarida ham keng foydalanishga harakat qilamiz. Ma'lumki, suhbat jarayonida ayniqsa ingliz tilida, turli xil maqollarni ishlatish nutqni yanada samaraliroq qilish bilan birga, ularni qanday o'rinli ishlatilishi bilan ingliz tilini bilish ko'nikmasini yuqoriroq darajada ekanligini bildiradi. Ularni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida esa, turli xil muammolar va nomutanosibliklar yuzaga kelib, bu jarayonni biroz murakkablashtirmoqda. Masalan, ba'zi ingliz maqollarining o'zbek tilida bir xil so'z va jumlar bilan ifodalangan ekvivalent mavjud bo'lsa, boshqalarining ekvevalentini faqatgina kontekstning ma'nosiga qarab aniqlash mumkin. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tilidagi maqollarni aynan "tana a'zolari" qatnashgan maqollar bilan taqqoslab tarjima jarayonidagi ba'zi muammolarning yechimini taqdim etishga va maqollarni ikki tilda ham ekvevalentlarini ko'rsatishga bag'ishlangan.

Kalit So'zlar: ingliz tili, o'zbek tili, maqollar, ekvevalent, ma'no, ifoda, suhbat, jumla, so'z.

Аннотация: В настоящее время, поскольку английский язык входит в число языков мира, мы стараемся широко использовать его как в повседневной жизни, так и в процессе учебы и работы. Известно, что в процессе общения, особенно на английском языке, использование различных пословиц свидетельствует о более высоком уровне владения английским языком, а также о том, как правильно их использовать, делая речь более эффективной. Однако в процессе их перевода на узбекский язык возникают различные проблемы и дисбалансы, что усложняет процесс перевода. Например, некоторые английские пословицы имеют эквивалент в узбекском языке, которые представлены одними и теми же словами и предложениями, в то время как эквивалентность других может быть определена только по смыслу контекста. Цель этой статьи - предложить решение некоторых проблем в процессе перевода путем сравнения пословиц на английском и узбекском языках с пословицами, в которых задействованы только "части тела", и продемонстрировать эквивалентные пословицы на обоих языках.

Ключевые слова: английский, узбекский, пословицы, эквивалент, значение, выражение, разговор, предложение, слово.

Abstract: Nowadays, as English is among the languages of the world, we try to use it widely, both in daily life and in the process of studying and working. It is known that in the process of conversation, especially in English, the usage of various Proverbs indicates a higher level of knowing English language, with how they are used appropriately, while making speech more effective. In the process of translating them into Uzbek, however, various problems and

imbalances arise, which complicates the process of translation. For instance, some English proverbs have an equivalent in Uzbek language, which are represented by the same words and sentences, while the equivalence of others can only be determined by the meaning of the context. This article is intended to provide a solution to some problems in the process of translation by comparing proverbs in English and Uzbek with proverbs in which only "body parts" are involved, and to demonstrate equivalent proverbs in both languages.

Keywords: *English, Uzbek, Proverbs, equivalent, meaning, expression, conversation, sentence, word.*

KIRISH

Maqol — xalq ogʻzaki ijodi janri; qisqa va loʻnda, obrazli va obrasiz, grammatik va mantiqiy tugallangan maʼnoli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuygʻulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, doʻstlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, koʻp hollarda qofiyadoshlik, baʼzan koʻp maʼnolilik, majoziy maʼnolarga boylik kabi xususiyatlar harakterli. Maqollarda antiteza (Antiteza - badiiy asarda voqea yoki tushunchalarni bir-biriga qarshilantirish orqali bir-biriga zid tushunchalarni yaqqol ifodalash va ularga qiyosiy xarakteristika berish) hodisasi koʻp uchraydi ("Kattaga hurmatda boʻl, kichikka izzatda boʻl" va boshqalar).

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab maqol Koshgʻariyning "Devonu lugʻotit turk" asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham oʻzbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. Shuningdek, maqol Koshgʻariy asarida "Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin"; "Odam olasi ichida, mol olasi tashida" kabi.

Maqollar baʼzan matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli soʻz, tanbeh, mashoyixlar soʻzi, hikmatli maqol, donishmandlar soʻzi, otalar soʻzi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda, hattoki, gʻoyat katta. Matalda narsa tasviri, uning harakteristikasi beriladi, maqolda esa toʻla tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi. Shunday naql ham bor "Soʻz koʻrki - maqol!" [3]

Taqqoslashni kundalik hayotda koʻp qoʻllaniladigan maqollaridan biri boʻlgan ushbu maqoldan boshlashni joiz deb topdik :

1."Koʻrpangga qarab oyoq uzat" [4].

Ushbu oʻzbek tilidagi maqolni biz moddiy va maʼnaviy manbasi yetarli boʻlmaganda ham, biror ishni qiyonlib boʻlsa ham bajararishga urinadigan odamlarga nisbatan ishlatamiz. Ingliz tilida ham ishlatilishi shunday boʻlib, huddi shu soʻzlar qatnashgan maqol ham mavjud:

"Stretch your Legs according to the coverlet" [1].

2." Lies have short legs"[1]. Ingliz tilida shunday maqol mavjud boʻlib, yolgʻonchilik uzoqqa choʻzilmasligi va yolgʻon bilan uzoqqa borib boʻlmasligini anglatadi. Bu maqolni

tarjima qilganimizda” yolgʻonning kalta oyoqlari bor” degan jumla kelib chiqadi. Ushbu maqolning oʻzbek tilidagi ekvevalenti quyidagicha boʻladi:

”Yolgʻonchining tili kalta”[4].

Ahamiyat beradigan boʻlsak, ingliz tilida ushbu maqolda “oyoq” yaʼni “leg” ishlatilgan boʻlsa, oʻzbekchada “til” ishlatilgan.

3. ”To Keep one's tongue between one's teeth”[1] ushbu ingliz maqoli har gapning oʻz gapirilish joyi boʻlishi, hamma gapni ham, har yerda aytib boʻlmasligini uqtiuvchi maʼnolarni anglatadi. Maqolni tarjima qilganda quyidagi jumla hosil boʻladi: “Tilingni tishing orasida saqla”. Oʻzbek tilida ham huddi shu maʼnolarni anglatuvchi maqol mavjud faqatgina oʻzbek tilidagi maqolda qofiyalilikyuzaga kelgan:

“Til suyaksiz, tish-qalʼa, Til yomoni — bir balo” [4]

Shuni ham aytishimiz kerakki, ikkala tildagi ekvevalentlarda ham “til” va “tish” bir-biriga mos ravishda ishlatilgan.

4. ”Out of the mouths of babes and sucklings”[1] ushbu maqolni tarjima qiladigan boʻlsak, quyidagicha boʻladi:”Goʻdaklar va bolalarning ogʻzidan”. Bir qarashda ushbu jumladan aniq bir maʼno anglash qiyin, lekin oʻzbek tilidagi koʻrinishda bu ish ancha osonroq:

“Bolali uyda gap yotmas”[4].

Ushbu maqol orqali, biz bolalarning oldida hamma gaplarni ham gapirib boʻlmasligini, ular juda ham begʻubor va sodda boʻliganliglari uchun, aytyotgan gaplariga kattalardek eʼtiborli boʻlmasliklarini anglashimiz mumkin. Maqolning tarkibiga keladigan boʻlsak, birinchi maqolda ishlatilgan barcha soʻzlar ham ikkinchi maqolda qatnashmagan, aksincha ularning oʻrniga boshqalari kelgan. Jumladan, oʻzbek tilidagi ekvevalentda “mouth” yaʼni ogʻiz soʻzi tushib qolib, “uyda”, “gap” kabi yangi soʻzlar ishtirok etib kelgan.

5. “Keep your mouth shut and you eyes open”[1]. Ushbu ingliz maqoli birinchi taqqoslagan maqolimiz singari, oʻzbek tilidagi maqol bilan soʻz va maʼno jihatidan “egizaklar” desak mubolagʻa boʻlmaydi. Tarjima qilganimizda “Ogʻzingni yop, qulogʻingni och”, ekvevalentda esa “Ogʻzingni ochguncha, koʻzingni och”[4]. Bu ikki tildagi maqolni taqqoslaganimizda, har ikkala maqolda ham tana aʼzolariga oid soʻzlar oʻz oʻrnida qoʻllangan: “mouth” and “eyes”.

6. Quyidagi ingliz maqolini tahlil qiladigan boʻlsak, “Better be the head of a dog than the tail of a lion”[1]. Soʻzma soʻz tarjima qilinganda jumla hosil boʻladi: “Arslonning dumi boʻlgandan koʻra itning boshi boʻlgan afzal”. Inglizlar ushbu maqolni “katta narsaning kichik, ahamiyatsiz aʼzosi boʻlishdan koʻra, unchalik yuqori mavqeiga ega boʻlmasa ham, kichik bir narsaning boshi boʻlish afzalroq” degan maʼnoda ishlatishadi. Oʻzbek tiliga taqqoslaydigan boʻlsak, ushbu inglizcha maqolga ayrim soʻzlari aynan mos keladigan, ammo maʼno jihatidan umuman bir-biriga toʻgʻri kelmaydigan ekvivalent mavjud. ”Arslonning oʻligi — sichqonning tirigi”[4]. Buning maʼnosi shuki, asl zotning qadri har doim baland boʻladi, u hatto zaiflashganda ham, oddiy odamlardan ustun boʻlib qolaveradi. Eʼtibor beradigan boʻlsak, birinchi maqolda bosh, dum kabi tana aʼzolari taʼkidlab oʻtilgan boʻlsa, ikkinchi maqolda oʻlik va tirik kabi maʼnosi bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan soʻzlar qatnashgan.

7. “Have a head like a sieve”[1]- “Gʻalvirga oʻxshash bosh egasi” degan maʼnoni anglatuvchi ushbu maqol, oʻzbek tilidagi “Esi pastning ishi past” [4]xalq maqoliga ekvivalent

hisoblanadi. Chunki ikkala maqolning ham mazmuni xotira pastligiga qaratilgan. Ba'zan, o'zbek tilida hazil tariqasida " boshing elak- nima kirsas, chiqib ketadi" iborasi ham ishlatiladi. Maqollarda tana a'zolariga oid so'zlarning ishtirokiga qaraydigan bo'lsak, ingliz tilidagisida va o'zbek tilidagi hazil tarzida ishlatiladigan maqol va iboralarning har ikkisida ham " bosh" tana a'zosining nomi aytib o'tilgan.

8. "Have an old head on young shoulders"[1] ushbu ingliz maqoli o'zbek tiliga tarjima qilinganda " Yosh yelkada qari boshga ega bo'lmoq" shu birlik kelib chiqadi. Ma'nosiga mos ravishda unga ekvivalent qilib quyidagi o'zbek maqolini keltirishimiz mumkin : "Aql yoshda emas, boshda"[4]. Ikki tildagi maqolda ham "bosh" so'zi ishlatilgan bo'lib, aqli bo'lish insonning yoshiga, emas balki, uning fikrlash qobiliyatiga, tajribasiga va tafakkuriga bog'liqligini ifodalamoqda. Ya'ni, kishi yosh bo'lsa ham, dono va aqli bo'lishi mumkin; yoki aksincha, katta yoshda bo'lsa ham, aqli inson mumkin. Birinchi maqoldagi "young shoulders" ya'ni "yosh yelkala" birikmasi ikkinchi maqoldagi insonning yoshiga ishora qiladi.

9. "Two heads are better than one"[1] -"Ikkita bosh bittasidan afzal" deb tarjima qilinuvchi ushbu maqolning o'zbek tilidagi ekvivalent ushbu tarjimani o'qishingiz bilan ko'z o'ngingizda gavdalanishi tabiiy. Biz nazarda tutgan ekvivalent quyidagicha:

Bir kalla — kalla,

Ikki kalla – tilla[4]

O'xshash tomonlari shundagi ikkala maqolda ham bir tana a'zosi nazarda tutilyapti faqat sinonimlardan foydalanilgan: "bosh" va "kalla". Bundan tashqari, o'zbek tilidagi maqol qofiyali va jozibalibroq hisoblanadi.

10. "An iron hand in a velvet glove"[1] ushbu maqol tarjimasi quyidagicha: " Duxoba qo'lqopdagi temir qo'l".Inglizlar ushbu maqolni tashqi ko'rinishda muloyim, xushmuomala bo'lsa-da, aslida qat'iy va murosasiz rahbar yoki odamlarga nisbatan ishlatishadi. Bunda yumshoq muomala ortida qattiq nazorat yoki kuch yashirin bo'lishi nazarda tutiladi. Va bu maqolda tana a'zolaridan biri bo'lgan " qo'l" maqolni ma'nosini ochib berishga xizmat qilmoqda. O'zbek tilida uning mana bunday ko'rinishi mavjud:

"Yuvosh it hurmay tishlar"[4].

E'tibor beriladigan jihati shundaki, har ikkala maqoldagi so'zlar bir-biridan tubdan farq qiladi va birinchi maqoldagi birorta so'z ikkinchi maqolda takrorlanmagan. Ya'ni birinchisida temir qo'l, duxoba qo'lqop bo'lsa, ikkinchisida yuvosh it, hurmay tishlar kabi so'zlar qatnashgan.

11. "Kings have long hands"[1] ushbu maqol ham o'zbek tilida so'zma-so'z tushadigan ekvivalentga ega. Ya'ni maqolning ma'nosi quyidagicha bo'lsa:"Qirolning qo'li uzun". Ekvivalenti mana bunday ko'rinishga ega:

"Podshoning kuragi uzun"[4].

Ushbu maqollar "hokimiyat egalari uzoqni ko'ra olishini, qo'lini qayerga uzatmasin unga yetishini ya'ni, kuchli insonning ayniqsa hokimiyatli shaxsning qudrati uzoqlarga yetishini bildiradi. Ikkala maqolda ham deyarli bir xil so'zlar ishlatilgan, jumladan qirol-podshoh, qo'l-kurak va uzun so'zlari.

12. "A bird in hand is worth two in the bush"[1] -"Butadagi ikkita qushdan, qo'ldagi bittasi yaxshi". Ushbu bu maqol inson o'zida bor narsaning qadriga yetishiga, ortiqcha hoy-u havaslarga berilib, qo'lidagi bor narsani boy bermaslikka undaydi. O'zbek tilidagi :

“Nasiya saryog’dan ,naqd o’pka yaxshi”[4] maqoli huddi shu ma’nolarda qo’llaniladi. Tana a’zolaridan birinchi maqolda “qo’l” bo’lsa, ikkinchisida “o’pka”.

XULOSA

Ushbu maqola ingliz va o’zbek tillaridagi maqollarni tana a’zolari bilan bog’langan maqollar asosida taqqoslashga bag’ishlangan. Tadqiqot davomida, ingliz va o’zbek tilidagi maqollarni tarjima qilishda yuzaga keladigan asosiy muammolar va nomutanositliklar tahlil qilindi. Maqollar o’zlarining qisqalik, lo’dalik va obrazli ifodalar bilan xalqning hikmatli fikrlarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Maqollarning tarjimasi esa nafaqat so’zlarni to’g’ri tarjima qilish, balki ma’no, madaniyat va tilning o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

O’rganilgan maqollar misolida, ko’plab holatlarda, ingliz va o’zbek tillaridagi maqollarni bir-biriga mos ravishda tarjima qilish uchun, faqat so’zlarni emas, balki ularning kontekstual ma’nolarini ham hisobga olish zarur ekanligi ko’rindi. Ayniqsa, tana a’zolari ishtirokidagi maqollarni tarjima qilishda bu holat muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilidagi "Lies have short legs" (Yolg’onchining tili kalta) maqolining o’zbek tilidagi ekvivalentida, so’zlar farq qilsada, umumiy ma’no va ta’sir bir xil bo’lishi mumkin. Bu esa til o’rtasidagi madaniy va lingvistik farqlarni hisobga olish zarurligini ko’rsatadi.

Tarjima jarayonida faqatgina so’zlarning to’g’ri ekvivalentlarini tanlash kifoya qilmaydi; balki har bir tilning o’ziga xos grammatik va stilistik xususiyatlarini, shuningdek, madaniyatdagi farqlarni inobatga olish ham muhim. Shuning uchun, maqollarni tarjima qilishda, ularning madaniy, semantik va sintaktik o’zgarishlarini chuqur tahlil qilish zarur.

Tadqiqot shuni ko’rsatdiki, ingliz va o’zbek tillaridagi maqollarni tarjima qilishda eng asosiy muammo — tilning o’ziga xos ma’no qatlamlarini aniqlash va ularga mos keladigan ekvivalentlarni tanlashdir. Shuningdek, bunday tarjimalar o’quvchilar yoki tinglovchilarga aniq va to’liq ma’lumot yetkazish uchun zarur bo’lib, bu ilmiy va madaniy almashinuvni osonlashtiradi.

Shunday qilib, ingliz va o’zbek tillaridagi maqollarni o’rganish, ularning tarjima jarayonini soddalashtirish va til o’rtasidagi madaniy va lingvistik bog’liqlikni chuqurroq tushinishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTALAR RO’YXATI:

1. K.M.Karamatova, H.S.KARAMATOV. (2000). Maqollar. Пословицы.Proverbs. (G. Salomov, Ed.) TOSHKENT, Uzbekistan: Mehnat.
2. Mannobova L. A , Hamroqulova R. I. (2024). TERMIN VA UNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE ;British International Science Conference, 32-37.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. (2000-2005). Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "davlat ilmiy nashriyoti.
4. T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. (2016). O'zbek xalq maqollari. (S. Turdimov, Ed.) Toshkent, Uzbekiston: "Sharq".
5. Шомақсудов Ш., ШораҳмедовШ. (2001). In Маънолар махзани, Т.